

Единый портал корпоративной информации

Объявления

"Agrobank" ATB

Объявление

"AGROBANK" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

AKSIYADORLARNING NAVBATDAGI YILLIK UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHI TO'G'RISIDA

"Agrobank" ATB Kuzatuv kengashining 2026-yil 4-iyundagi Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlis qaroriga asosan 2026-yil 30-iyun kuni soat 10:00 da Toshkent shahri, Botir Zokirov ko'chasi, 2a uy manzili bo'yicha joylashgan bank Bosh ofisi binosida aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.
3. Bank Kuzatuv kengashining 2025-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti.
4. Bank Boshqaruvining 2025-yil faoliyati yakunlari bo'yicha hisoboti.
5. Bankning 2025-moliyaviy yil yakuni bo'yicha MHXS asosida tayyorlangan yillik hisoboti va tashqi audit xulosasi, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobotini tasdiqlash.
6. 2025-yil yakuni bo'yicha bank foydasini taqsimlash va imtiyozli aksiyalarga dividend to'lash to'g'risida.
7. Bankning 2025-yil yakunlari bo'yicha Korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalari to'g'risidagi hisobotini tasdiqlash.
8. Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalarining, kuzatuv kengashi raisi va a'zolarining 2025-yil faoliyati yakunlari yuzasidan mustaqil baholash natijalarini tasdiqlash.
9. Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibini qayta saylash.
10. Bankning 2026-yil faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash va u bilan shartnoma tuzish.
11. Bankning afillangan shaxslari bilan kelgusida bank tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlarni ma'qullash.
12. Agrobank "Boshqaruvi to'g'risida Nizom"ga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash.
13. Bankda islomiy bank faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: 2026-yil 24-iyun.

Umumiy yig'ilishga qatnashish va ovoz berish huquqiga ega aksiyadorlar shaxsini tasdiqlovchi hujjat, aksiyadorlar vakillari esa qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari shart.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan ma'lumot va hujjatlar bilan bank Bosh ofisi binosida ushbu e'lon berilgan kundan boshlab yig'ilish o'tkaziladigan kunga qadar soat 10.00 dan 16.00 gacha tanishishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefon: (71) 202-80-08, ichki raqam 11089, 11903)

"Agrobank" ATB Kuzutuv kengashi

08.06.2026

Источник: <https://openinfo.uz/announce/20966/>

Дата загрузки с портала: 24.06.2026

Дата подписания: 09.06.2026

**AGROBANK
ATB
Direktor**



**NABIYEV FERUZ
SHOYIMOVICH**